



Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljurnal.uz>

Universal International Scientific
Journal

e-ISSN: [3060-4540 \(online\)](https://universaljurnal.uz)

Year: 2025 Issue: 2 Volume: 2

Published: 27.02.2025
<https://universaljurnal.uz>



International indexes

GOOGLE SCHOLAR
CROSSREF (OAK BAZA)
ZENODO
OPEN AIRE
EUROPUB
RESEARCHGATE (OAK BAZA)
SJIF

FAZODA TEKISLIK VA TO‘G‘RO CHIZIQ TENGLAMALARI

Azimov Raximjon Karimovich

Andijon davlat universiteti

Uzbekistan

razimov@mail.ru

<https://orcid.org/0000-0001-9630-513X>

Annotatsiya: Ushbu ishda fazoda tekislik va to‘g‘ri chiziq tenglamalarining analitik ifodalanishi, ularning turlari, geometrik talqini hamda o‘zaro joylashuv holatlari o‘rganiladi. Fazodagi uch o‘lchamli koordinatalar sistemasida tekislikning umumiy, nuqta-vektorli va normal ko‘rinishdagi tenglamalari bilan tanishtiriladi. Shuningdek, to‘g‘ri chiziqning parametrik va yo‘nalish vektorli tenglamalari yoritiladi. Ish davomida tekislik va to‘g‘ri chiziq o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, ularning kesishish shartlari, parallel va perpendikulyar bo‘lish holatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, nuqtadan tekislikka yoki to‘g‘ri chiziqqa bo‘lgan masofa, burchak va proyeksiya kabi muhim geometrik tushunchalarga ham e‘tibor qaratiladi.

Mazkur mavzu matematikaning analitik geometriya bo‘limida muhim o‘rin egallab, muhandislik, fizika va kompyuter grafikasi sohalarida keng qo‘llaniladi. Ish natijasida talabalar fazodagi asosiy geometrik obyektlarni analitik shaklda ifodalash va tahlil qilish ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar.

Kalit so‘zlar: Fazoda tekislik, to‘g‘ri chiziq, koordinatalar sistemasi, tekislik tenglamasi, normal vektor, parametrik tenglama, vektor tenglama, yo‘nalish vektori, tekisliklar kesishmasi, chiziq va tekislik

o‘zaro joylashuvi, parallel va perpendikulyar chiziqlar, nuqtadan tekislikka masofa, fazoda burchak, analitik geometriya, proyeksiya, fazoviy tahlil.

Аннотация: В работе изучается аналитическое представление уравнений плоскости и прямой в пространстве, их типы, геометрическая интерпретация и случаи взаимного расположения. Вводятся уравнения плоскости в общем виде, точно-векторные и нормальные формы в трехмерной системе координат в пространстве. Рассматриваются также параметрические и направляющие векторные уравнения прямой линии. В ходе работы анализируются взаимосвязь плоскости и прямой, условия их пересечения, случаи параллельности и перпендикулярности. Также будет уделено внимание важным геометрическим понятиям, таким как расстояние от точки до плоскости или прямой, угол и проекция.

Эта тема занимает важное место в аналитической геометрии — разделе математики и широко используется в области техники, физики и компьютерной графики. В результате работы учащиеся приобретут навыки представления и анализа основных геометрических объектов в пространстве в аналитической форме.

Ключевые слова: Плоскость в пространстве, прямая, система координат, уравнение плоскости, вектор нормали, параметрическое уравнение, векторное уравнение, направляющий вектор, пересечение плоскостей, взаимное расположение прямой и плоскости, параллельные и перпендикулярные прямые, расстояние от точки до плоскости, угол в пространстве, аналитическая геометрия, проекция, пространственный анализ.

Abstract: This work studies the analytical representation of plane and straight line equations in space, their types, geometric interpretation, and mutual localization cases. In a three-dimensional coordinate system in space, general, point-vector, and normal equations of the plane are introduced. Also, parametric and direction vector equations of a straight line are covered. During the work, the relationship between a plane and a straight line, the conditions for their intersection, and the cases of parallelism and perpendicularity are analyzed. Also, attention is paid to important geometric concepts such as the distance from a point to a plane or straight line, angle, and projection.

This topic occupies an important place in the analytical geometry section of mathematics and is widely used in the fields of engineering, physics, and computer graphics. As a result of the work, students will acquire the skills to represent and analyze the main geometric objects in space in an analytical form.

Keywords: Plane in space, straight line, coordinate system, equation of the plane, normal vector, parametric equation, vector equation, direction vector, intersection of planes, mutual location of a line and a plane, parallel and perpendicular lines, distance from a point to a plane, angle in space, analytical geometry, projection, spatial analysis.

Language: Uzbek

Citation: Azimov, R. (2025). EQUATIONS OF A PLANE AND A STRAIGHT LINE IN SPACE.

Universal International Scientific Journal, 2(2), 151–159. Retrieved from <https://universaljournal.uz/index.php/jurnal/article/view/1493>

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15228628>


Google scholar: https://scholar.google.com/citations?user=6e5c_sdh0UJ&hl=ru&as_ssr=1&as_ssr_start=1&as_ssr_end=10&as_ssr_page=1

Kirish. Analitik geometriya fazodagi geometrik obyektlarning algebraik ifodalanishini o'rganadi va ularning o'zaro bog'liqliklarini aniqlashda muhim vosita hisoblanadi. Ayniqsa, uch o'lchamli Evklid fazosida tekislik va to'g'ri chiziq kabi asosiy geometrik elementlarning tenglamalarini aniqlash va ularni tahlil qilish zamonaviy matematikaning dolzarb yo'nalishlaridan biridir. Fazoda tekislik va to'g'ri chiziqning analitik ifodasi, ularning parametrik, vektorli hamda umumiy tenglama ko'rinishlari, bu obyektlar orasidagi geometrik munosabatlar (masalan, kesishish, parallel va perpendikulyarlik) turli sohalarda — xususan, muhandislik, fizik modellashtirish, kompyuter grafikasi va fazoviy tahlil ishlanmalarida keng qo'llaniladi. Mazkur maqolada fazoda tekislik va to'g'ri chiziq tenglamalarining asosiy turlari, ularning o'zaro joylashuv holatlari, shuningdek, nuqta, chiziq va tekislik orasidagi masofalar, burchaklar va proyeksiyalarni aniqlash usullari tizimli ravishda bayon etiladi. Tadqiqot natijalari fazoviy geometriya masalalarining nazariy asoslarini mustahkamlash va ularni amaliyotga tatbiq etishda foydali bo'lishi mumkin.

Tekislikning umumiy tenglamasi. Vektorning tekislikka parallel sharti. Tekislik o'zining umumiy tenglamasi bilan berilgan bo'lsin.

$$Ax + By + Cz + D = 0 \quad (1.1)$$

va $\vec{a} = \{a_1, a_2, a_3\}$, berilgan (1.1) tekislikka parallel bo'lsin (1-rasm),



1-rasm.

Bu xolda (1.1) tekislikdan shunday ikkita M_1 va M_2 nuqtalar topadalki bular uchun, $\overrightarrow{M_1M_2} = \vec{a}$ bo'ladi. Shartga ko'ra $M_1(x_1, y_1, z_1)$ va $M_2(x_2, y_2, z_2)$ nuqtalar berilgan tekislikda yotganligi uchun

$$Ax_1 + By_1 + Cz_1 + D = 0 \quad \text{va}$$

$$Ax_2 + By_2 + Cz_2 + D = 0$$

shartlar bajariladi, bundan esa quyidagicha tenglikka ega bo'lamiz:

$$A(x_2 - x_1) + B(y_2 - y_1) + C(z_2 - z_1) = 0$$

Ikkinchi tomondan $\overrightarrow{M_1M_2} = \{x_2 - x_1, y_2 - y_1, z_2 - z_1\} = \vec{a}$ ekanligidan quyidagi tenglikka ega bo'lamiz:

$$Aa_1 + Ba_2 + Ca_3 = 0 \quad (1.2)$$


Bu xosil bo'lgan (1.2) shart \vec{a} vektorni berilgan tekislikka parallel shartini ifodalaydi.

Tekislikning umumiy tenglamasini fazodagi vaziyatini o'rganamiz.

a) Agar $A \neq 0, B \neq 0, C \neq 0, D = 0$ bo'lsa, u xolda (1.1) tenglamamiz quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$Ax + By + Cz + D = 0$$

Bu xolda tekisligimiz koordinata boshidan o'tuvchi tekislik bo'ladi, chunki $O(0,0,0)$ nuqtaning koordinatalari tekislik tenglamasini qanoatlantiradi (2 -rasm).



2-rasm.

3-rasm.


b) Faraz qilaylik $A \neq 0, B \neq 0, D = 0, C \neq 0$ bo'lsin, u xolda tenglamamiz quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$Ax + By + D = 0.$$

Bu xolda $\vec{k} = \{0,0,1\}$ vektor bilan (1.1) tekislik uchun (1.2) shart bajariladi, bundan esa tekislik oz o'qiga parallel ekanligi kelib chiqadi. (3 - rasm).

v) Faraz qilaylik $A \neq 0, B \neq 0, D = 0, C = 0$ bo'lsin, u xolda tekislikning tenglamasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$Ax + By = 0$ bundan esa (1.1) tekislikka O'z o'qidan o'tishligi kelib chiqadi (4 - rasm).




4 - rasm.

r) Faraz qilaylik $A \neq 0, B \neq 0, C = 0, D \neq 0$ bo'lsin, u xolda tenglamamiz quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$Ax + D = 0$. Bu xolda xosil bo'lgan tekislik tenglamasi bilan $\vec{j} = \{0,1,0\}$ va

$\vec{k} = \{0,0,1\}$ vektorlar uchun (1.2) shart bajariladi. Tekisligimiz koordinata boshidan o'tmaganligi uchun ($D \neq 0$), u (0 y z) tekisligiga parallel tekislik bo'ladi(5- rasm).




5-rasm.

d) Faraz qilaylik $A \neq 0, B = 0, C = 0, D = 0$ bo'lsin, u xolda tekislik tenglamasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$Ax = 0, \text{ yoki } x = 0.$$

va tenglamamiz (o y z) tekisligidan iborat bo'ladi(6 -rasm).



6-rasm.

Uch nuqtadan o'tuvchi tekislik tenglamasi. Faraz qilaylik bizga bir to'g'ri chiziqda yotmagan uchta nuqta berilgan bo'lsin,

$M_1(x_1, y_1, z_1)$, $M_2(x_2, y_2, z_2)$ va $M_3(x_3, y_3, z_3)$. U xolda bu nuqtalar orqali α tekislik o'tkazish mumkin. Bu tekislikda yotuvchi ixtiyoriy $M(x, y, z)$ nuqta olamiz. Bu berilgan nuqtalardan $\overrightarrow{M_1M_2}$, $\overrightarrow{M_1M_3}$ vektorlarni tuzamiz, bu vektorlar komplanar vektorlar bo'ladi.

Bu vektorlarni komplanarlik sharti quyidagicha bo'ladi:

$$\begin{vmatrix} x - x_1 & y - y_1 & z - z_1 \\ x_2 - x_1 & y_2 - y_1 & z_2 - z_1 \\ x_3 - x_1 & y_3 - y_1 & z_3 - z_1 \end{vmatrix} = 0 \quad (2.1)$$

Xosil bo'lgan (2.1) tenglik, fazoda berilgan uchta nuqtadan o'tuvchi tekislik tenglamasini ifodalaydi.

Faraz qilaylik bizga $M_1(a, 0, 0)$, $M_2(0, v, 0)$, $M_3(0, 0, s)$ nuqtalar berilgan bo'lsin, bu nuqtalardan o'tuvchi tekislik tenglamasini tuzamiz.

$$\begin{vmatrix} x - a & y & z \\ -a & v & 0 \\ -a & 0 & s \end{vmatrix} = 0$$

yoki

$$= 1 \quad \frac{x}{a} + \frac{y}{v} + \frac{z}{s} \quad (2.2)$$

Bu tenglamaga tekislikni kesmalarga nisbatan tenglamasi deyiladi.

§ 5.3. Ikki tekislikning o'zaro vaziyati

Faraz qilaylik, bizga tekisliklar o'zining umumiy tenglamalari bilan berilgan bo'lsin:

$$S_1z + D_1 = 0, \quad \alpha_1: A_1x + V_1y + \quad (3.1)$$

$$S_2z + D_2 = 0, \quad \alpha_2: A_2x + V_2y + \quad (3.2)$$

Bu tekisliklarni o'zaro vaziyatini o'rganish uchun quyidagi matritsalarini tuzamiz:

$$N_1 = \begin{pmatrix} A_1 & V_1 & S_1 \\ A_2 & V_2 & S_2 \end{pmatrix} \text{ va } N_2 = \begin{pmatrix} A_1 & V_1 & S_1 & D_1 \\ A_2 & V_2 & S_2 & D_2 \end{pmatrix}$$

Faraz qilaylik r_1 va r_2 lar mos ravishda N_1 va N_2 matritsalarini ranglari bo'lsin. U xolda $r_1 \leq r_2$.

Quyidagi xollarni qarab chiqamiz:

1. $r_1 = 2$. Bu xolda $r_2 = 2$ bo'lib (3.1) va (3.2) tenglamalar sistemasi cheksiz ko'p Yechishga ega bo'ladi va tenglamalarimiz to'g'ri chiziq bo'yicha biri ikkinchisini kesib o'tadi.

2. $r_1 = 1$, $r_2 = 2$. Bu shartni quyidagicha yozishimiz mumkin:

$$A_2 = \lambda A_1, \quad V_2 = \lambda V_1, \quad S_2 = \lambda S_1, \quad D_2 \neq \lambda D_1.$$




Bu xolda α_1 , α_2 tekisliklarimiz biri ikkinchisini kesib o'tmaydi, ya'ni tekisliklar parallel bo'ladi.

3. $r_1 = r_2 = 1$. Bu shartni quyidagicha yozishimiz mumkin:

$$A_2 = \lambda A_1, \quad V_2 = \lambda V_1, \quad S_2 = \lambda S_1, \quad D_2 = \lambda D_1.$$

Bu shartlar bajarilganda α_1 , α_2 tekisliklar ustma-ust tushadi.

Shunday qilib biz quyidagilarni isbot qildik:

	agarda		y holda
	r_1	r_2	
1	2	2	
2	1	2	
3	1	1	

Tekislikning normal tenglamasi.

Nuqtadan tekislikkacha bo‘lgan masofa Tekislikka perpendikulyar \vec{n} vektorga uning normal vektori deyiladi. Agar tekislik o‘zining umumiy tenglamasi bilan berilgan bo‘lsa

$$A_0x + V_0y + S_0z + D_0 = 0 \tag{4.1}$$

va $A_0^2 + V_0^2 + S_0^2 = 1$ shart bajarilsa, tekislik o‘zining normal tenglamasi bilan berilgan deyiladi. Normal vektor $\vec{n}_0 = \{A_0, V_0, S_0\}$ koordinatlarga ega bo‘ladi. Agarda yuqoridagi shart bajarilmasa uni normal xolga keltirish mumkin, buning uchun $\vec{n}_0 = \frac{\vec{n}}{|\vec{n}|}$ vektorni tanlash yetarlidir.

Bundan esa tekislikni normal tenglamasini ko‘rinishi quyidagicha bo‘lishi kelib chiqadi.

$$= 0 \quad \frac{Ax + By + Cz + D}{\sqrt{A^2 + B^2 + C^2}} \tag{4.2}$$

Agar tekislik o‘zining normal tenglamasi bilan berilgan bo‘lsa, $M_1(x_1, y_1, z_1)$ nuqtadan tekislikkacha bo‘lgan masofa quyidagi formula bilan xisoblanadi.

$$t = \frac{A_0x_1 + V_0y_1 + S_0z_1 + D_0}{\sqrt{A_0^2 + V_0^2 + S_0^2}} \tag{4.3}$$

Tekislik tenglamasi normal bo‘lmasa masofa quyidagicha xisoblanadi:

$$t = \frac{Ax_1 + By_1 + Cz_1 + D}{\sqrt{A^2 + B^2 + C^2}} \tag{4.4}$$

1-Misol. (3,1,-1) nuqtadan $22x + 4y - 20z - 45 = 0$ tekislikkacha bo‘lgan masofa topilsin.

Yechish: Nuqtadan tekislikkacha bo‘lgan masofa (4.2) bilan xisoblanadi.

$$t = \frac{22 \times 3 + 4 \times 1 - 20 \times (-1) - 45}{\sqrt{22^2 + 4^2 + (-20)^2}} = \frac{45}{\sqrt{900}} = \frac{3}{2}$$

Ikki tekislik orasidagi burchak.

Tekisliklar o'zining umumiy tenglamalari bilan berilgan bo'lsin:

$$A_1x + V_1y + S_1z + D_1 = 0 \quad \text{va} \quad A_2x + V_2y + S_2z + D_2 = 0.$$

Bu tekisliklarni normal vektorlari quyidagilar bo'ladi:

$$\vec{n}_1 = \{A_1, V_1, S_1\} \quad \text{va} \quad \vec{n}_2 = \{A_2, V_2, S_2\}.$$

Berilgan tekisliklar orasidagi burchak, ularni normal vektorlari orasidagi burchak bilan bir xil bo'lganligi uchun quyidagi formulaga ega bo'lamiz:

$$\cos \varphi = \frac{\vec{n}_1 \times \vec{n}_2}{|\vec{n}_1| |\vec{n}_2|} = \frac{A_1A_2 + B_1B_2 + C_1C_2}{\sqrt{A_1^2 + B_1^2 + C_1^2} \times \sqrt{A_2^2 + B_2^2 + C_2^2}} \quad (5.1)$$

Agar berilgan tekisliklar o'zaro perpendikulyar bo'lsa, u xolda

$$A_1A_2 + B_1B_2 + C_1C_2 = 0 \quad \text{bo'ladi.} \quad (5.2)$$

2-Misol. Quyidagi tekisliklar orasidagi burchak topilsin:

$$2x - y + 2z - 3 = 0, \\ 6x + 2y - 3z + 8 = 0.$$


Yechish. Berilgan tekisliklarni normal vektorlarini topamiz,

$$\vec{n}_1 = \{2, -1, 2\}, \quad \vec{n}_2 = \{6, 2, -3\}.$$

Bundan esa esa (5.1) ga ko'ra

$$\cos \varphi = \frac{2 \times 6 + 1 \times 2 - 2 \times 3}{\sqrt{4 + 1 + 4} \times \sqrt{36 + 4 + 9}} = \frac{4}{21}$$

To'g'ri chiziqning parametrik tenglamasi. Faraz qilaylik bizga $M_0(x_0, y_0, z_0)$ nuqta va to'g'ri chiziqning yo'naltiruvchi vektori $\vec{a} = \{a_1, a_2, a_3\}$ berilgan bo'lsin(7- rasm).



7-rasm.

To'g'ri chiziqdan ixtiyoriy $M(x, y, z)$ nuqtani olamiz. $\vec{M_0M}$ va \vec{a} vektorlar kolliniar vektorlar bo'lganligi uchun quyidagini yozishimiz mumkin:

$$\vec{M_0M} = t\vec{a}$$

Bu tenglikdan koordinat formulaga o'tadigan bo'lsak:

$$\left. \begin{aligned} x &= x_0 + a_1t \\ y &= y_0 + a_2t \\ z &= z_0 + a_3t \end{aligned} \right\} \quad (6.1)$$

tenglamalarga ega bo'lamiz. Xosil bo'lgan (6.1) tenglamaga to'g'ri chiziqning parametrik tenglamasi deyiladi. Bu tenglamaga ekvivalent quyidagi tenglamani xam yozishimiz mumkin:

$$\frac{x-x_0}{a_1} = \frac{y-y_0}{a_2} = \frac{z-z_0}{a_3} \quad (6.2)$$

Xosil bo'lgan (6.2) tenglamaga to'g'ri chiziqning kanonik tenglamasi deyiladi.

Ikki nuqtadan o'tuvchi to'g'ri chiziq tenglamasi. Bizga fazoda ikkita $M_1(x_1, y_1, z_1)$, $M_2(x_2, y_2, z_2)$ nuqtalar berilgan bo'lsin. Bu nuqtalardan o'tuvchi to'g'ri chiziq uchun $\overrightarrow{M_1M_2} = \{x_2 - x_1, y_2 - y_1, z_2 - z_1\}$ vektor yo'naltiruvchi vektor bo'ladi, bundan esa

$$a_1 = x_2 - x_1, a_2 = y_2 - y_1, a_3 = z_2 - z_1 \text{ bo'ladi.}$$

Bu nuqtalardan o'tuvchi to'g'ri chiziqning kanonik tenglamasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$\frac{x-x_1}{x_2-x_1} = \frac{y-y_1}{y_2-y_1} = \frac{z-z_1}{z_2-z_1} \quad (7.1)$$

1-Misol. $M_1(1,3,-2)$ va $M_2(2,-1,0)$ nuqtalardan o'tuvchi to'g'ri chiziq tenglamasi tuzilsin.


$$\frac{x-1}{2-1} = \frac{y-3}{-1-3} = \frac{z+2}{0+2} \text{ yoki } \frac{x-1}{1} = \frac{y-3}{-4} = \frac{z+2}{2}$$

Ikki tekislikni kesishishidan xosil bo'lgan to'g'ri chiziq tenglamasi. Faraz qilaylik bizga ikkita tekislik o'zining umumiy tenglamalari bilan berilgan bo'lsin:

$$A_1x + V_1y + S_1z + D_1 = 0; \quad (8.1)$$

$$A_2x + V_2y + S_2z + D_2 = 0, \quad (8.2)$$

xamda bu tekisliklar biri ikkinchisini kesib o'tsin. (8- rasm)



8-rasm.

Berilgan tekisliklar xosil qilgan to'g'ri chiziqning parametrik tenglamasini tuzamiz. To'g'ri chiziqda yotuvchi biror $M_0(x_0, y_0, z_0)$ nuqtani topish uchun $z = z_0$ qiymat beramiz, xosil bo'lgan sistemadan $x = x_0, y = y_0$ qiymatlarni topamiz. Bundan esa l to'g'ri chiziqda yotuvchi $M_0(x_0, y_0, z_0)$ topiladi. U xolda l to'g'ri chiziq tenglamasini quyidagi ko'rinishda yozishimiz mumkin:

$$\begin{aligned} A_1(x - x_0) + V_1(y - y_0) + S_1(z - z_0) &= 0; \\ A_2(x - x_0) + V_2(y - y_0) + S_2(z - z_0) &= 0. \end{aligned}$$

Bu yerdan quyidagilarni topamiz:

$$\frac{x - x_0}{\begin{vmatrix} V_1 & S_1 \\ V_2 & S_2 \end{vmatrix}} = \frac{y - y_0}{\begin{vmatrix} S_1 & A_1 \\ S_2 & A_2 \end{vmatrix}} = \frac{z - z_0}{\begin{vmatrix} A_1 & V_1 \\ A_2 & V_2 \end{vmatrix}} = t,$$

yoki

$$\begin{aligned} x &= x_0 + \begin{vmatrix} V_1 & S_1 \\ V_2 & S_2 \end{vmatrix} \times t, \\ y &= y_0 + \begin{vmatrix} S_1 & A_1 \\ S_2 & A_2 \end{vmatrix} \times t, \end{aligned} \quad (8.3)$$

$$z = z_0 + \begin{vmatrix} A_1 & V_1 \\ A_2 & V_2 \end{vmatrix} \times t.$$

1-Misol. To'g'ri chiziqning parametrik tenglamasi tuzilsin.

$$3x + 2y + 4z - 11 = 0,$$

$$2x + y - 3z - 1 = 0.$$

YEchish: Aytaylik $z = 0$ bo'lsin, u holda:

$$3x + 2y - 11 = 0,$$

$$2x + y - 1 = 0.$$

Bu sistemani yechib, $x_0 = -9, y_0 = 19$ larni topamiz.

Demak, $M_0(-9, 19, 0)$ -nuqta to'g'ri chiziqda, yotuvchi nuqta bo'ladi. To'g'ri chiziqning yo'naltiruvchi vektori

$$\vec{a} = \left\{ \begin{vmatrix} 2 & 4 \\ 1 & -3 \end{vmatrix}, \begin{vmatrix} 4 & 3 \\ -3 & 2 \end{vmatrix}, \begin{vmatrix} 3 & 2 \\ 2 & 1 \end{vmatrix} \right\},$$

$$\text{yoki } \vec{a} = \{-10, 17, -1\}.$$

To'g'ri chiziqning parametrik tenglamasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$x = -9 + 10 \times t,$$

$$y = 19 + 17 \times t,$$

$$z = -t.$$

Xulosa. Ushbu maqolada fazoda tekislik va to'g'ri chiziq tenglamalarining analitik ko'rinishlari, ularning turlari

hamda o'zaro geometrik munosabatlari tizimli ravishda o'rganildi. Tekislikning umumiy, normal va nuqta-vektorli ko'rinishdagi tenglamalari bilan bir qatorda, to'g'ri chiziqning parametrik va vektorli ifodalari ham tahlil qilindi. Shuningdek, fazodagi obyektlar orasidagi kesishish shartlari, burchaklar, masofalar va proyeksiyalarni aniqlash usullari ko'rib chiqildi. Tadqiqot natijalari fazoviy geometriya masalalarining nazariy asoslarini chuqurlashtirish, shuningdek ularni amaliyotda – jumladan, muhandislik loyihalash, kompyuter grafikasi va fizikaviy modellashtirish sohalarida qo'llash imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuvlar kelajakda yanada murakkab fazoviy tuzilmalarni tahlil qilish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Бахвалов С.В., Бабушкин Л.И., Иваницкая В.П. Аналитическая геометрия. Изд. М. Просвещение – 1970 стр. 375.
2. Artikbayev A., Geometriya (Planimetriya) Toshkent – 2024. 229-bet
3. Narmanov A.Y., Analitik geometriya. Toshkent, 2008, 172-bet
4. Бахвалов С.В., Моденов П.С., Пархоменко А.С. Комплекс задач из аналитической геометрии. Ташкент, 2006, 546-с.
5. Погорелов А.В. Аналитическая геометрия. Т. Ўқитувчи, 1983, 206-с
6. Цубербиллер О.Н. Задачи и упражнения по аналитической геометрии. Санкт-Петербург-Москва, Изд. Лай, 2003г. стр. 336.
7. Постников М.М., Аналитическая геометрия. М. Наука, 1979. Стр. 336
8. Клетенин Д.В., Сборник задач по аналитической геометрии. М. Наука. 1998.